

YANGI O‘ZBEKISTONDA AYOLLARGA YARATILAYOTGAN IMKONIYATLAR: TENGLIK VA TARAQQIYOT YO‘LIDA

Jo‘rayeva Iroda

O‘zbekiston jurnalistika va
ommaviy kommunikatsiyalar universiteti magistri

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida ayollar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, gender tengligini ta‘minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar va ayollarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotdagi ishtiroki tahlil qilinadi. Xususan, davlat tomonidan qabul qilinayotgan qonunlar, dasturlar, kvotalar va tashabbuslarning ahamiyati, shuningdek, ularning jamiyat taraqqiyotiga ta‘siri yoritiladi. Tadqiqotda statistik ma‘lumotlar, tahliliy fikrlar va real hayotiy misollar asosida ayollarning yangi imkoniyatlar sari intilishi ko‘rsatib beriladi. Bu boradagi yutuqlar bilan birga, mavjud muammolar va ularni hal etish yo‘llariga ham e‘tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, gender tengligi, ayollar huquqlari, imkoniyatlar, ijtimoiy faollik, islohotlar, taraqqiyot, ayol siyosatchilar, ayollar bandligi, gender siyosati.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot yo‘li jamiyatdagi har bir a‘zosining imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Ayollar esa bu jarayonda alohida o‘rin tutadi, chunki jamiyatning mustahkamligi, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi ularning salohiyati bilan bevosita bog‘liq. Mamlakatimizda ayollarga yaratilayotgan imkoniyatlar o‘zgarishlar va ijtimoiy islohotlar orqali yanada kengayib, ularga teng huquq va imkoniyatlar taqdim etilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning ayollarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tashabbuslari, ularga iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarida qulay sharoit yaratish borasidagi izchil islohotlar bugungi O‘zbekistonda o‘z ifodasini topmoqda.

O‘zbekiston hukumati tomonidan ayollarni iqtisodiy faollikka jalb qilish va ularning tadbirkorlik sohasida muvaffaqiyatga erishishlari uchun yaratilgan

sharoitlar, mamlakatdagi gender tenglikni oshirish va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim qadamdir. 2021-yildan boshlab amalga oshirilgan ayollarni tadbirkorlikka rag'batlantirish dasturi, shubhasiz, bu yo'nalishda eng muhim tashabbuslardan biridir. 200 mingdan ortiq loyiha uchun ajratilgan 2 trillion so'm miqdoridagi kreditlar, subsidiyalar va imtiyozlar nafaqat ayollarni biznes boshlashda qo'llab-quvvatlashni, balki ularni iqtisodiy mustaqillikka erishishlariga ko'maklashishni ham maqsad qilib qo'yadi.

Bu dasturdan 320 mingdan ortiq xotin-qizning doimiy ish o'rniga ega bo'lishi, albatta, juda katta yutuq. Ularning ko'plari o'z bizneslarini boshlash, yangi ish o'rinlari yaratish va ijtimoiy faollikka hissa qo'shishda o'z muvaffaqiyatlarini ko'rsatdi. Xotin-qizlarning o'z bizneslarini rivojlantirishga qaratilgan imkoniyatlar ularni iqtisodiy jihatdan mustahkamlashga yordam beradi, bu esa o'z navbatida jamiyatda ayollarning o'rnini va ta'sirini yanada kuchaytiradi.

Shu bilan birga, bu dastur faqat iqtisodiy jihatdan yordam bermay, balki ayollarni o'z huquqlarini anglash, ta'lim olish va jamiyatda faol bo'lishga ham undaydi. Chunki iqtisodiy mustaqillikka erishgan ayol o'zining nafaqat o'ziga, balki oila a'zolariga ham yanada yaxshi sharoitlar yaratishga qodir. Ular nafaqat o'z biznesini muvaffaqiyatli yuritishi, balki yangi ish o'rinlari yaratish orqali atrofdagi boshqa ayollarni ham qo'llab-quvvatlashlari mumkin.

Bundan tashqari, ta'kidlash joizki, O'zbekistonning davlat boshqaruvi va parlament tizimida ayollarning ishtiroki yildan-yilga ortib borayotgani, albatta, mamlakatdagi gender tenglik siyosatining muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganini ko'rsatadi. 2017-yilda xotin-qizlar boshqaruv sohasining faqat 20 foizini tashkil etsa, bugungi kunda bu raqam 35 foizga yetishi – bu katta yutuqdir. Ayniqsa, Oliy Majlisning Qonunchilik palatasidagi ayollar ulushi 38 foizni tashkil etishi, davlatning turli darajalarida ayollarning mas'uliyatli lavozimlarga tayinlanishi, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va taraqqiyotning ko'rsatkichidir.

Xotin-qizlarning davlat boshqaruviga va parlament faoliyatiga yanada faolroq jalb qilinishi, ularning jamiyatda muhim qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirokini ta'minlash, ijtimoiy ehtiyojlarga yanada aniq va samarali javob berish imkonini yaratadi. Bu o'z navbatida ayollarning jamiyatdagi o'rnini va ta'sirini oshiradi, ayni paytda demokratiya va gender tenglikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ayollarning yuqori lavozimlarda ishlashining jamiyat rivojiga ta'siri shundaki, ular nafaqat o'z tajribalari, balki ayollarga xos bo'lgan tafakkur va yondashuvlarini ham qarorlar qabul qilishda qo'llashadi. Xotin-qizlarning boshqaruvdagi ishtiroki nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy sohalarida ham samarali natijalarga olib kelishi mumkin. Masalan, ayollar ko'proq ijtimoiy muammolarni hal qilishga qiziqishi, oilaviy va maishiy zo'ravonlikka qarshi kurash, ta'lim va salomatlik sohalarida islohotlarni ilgari surish, ayniqsa, xotin-qizlarga doir huquqiy himoyalarni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishi mumkin.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning ta'kidlashicha, 2025 yil ayollar bandligini ta'minlashda hal qiluvchi yil bo'ladi.

“Xotin-qizlarni kasb-hunarga o'qitish, ishli qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish hisobidan 2 million nafar ayolning bandligi ta'minlanadi. Bunda Markaziy bank tijorat banklari bilan 1 million 300 ming nafar, Kasaba uyushmalari federatsiyasi “Ayollar daftari”ga kiritilgan 636 ming, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tadbirkorlik qilish istagida bo'lgan 100 ming nafar xotin-qizni o'qitib, ish bilan ta'minlash va biznesini ochishga ko'maklashish uchun mas'ul bo'ladi”, — degan edi Prezident 2025-yil 7- mart kuni Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida.

Yangi O'zbekistonda ayollarga yaratilayotgan imkoniyatlar — bu mamlakatning kelajakdagi rivojlanishining kaliti. Ayollarni ta'lim, ish, salomatlik va ijtimoiy himoya sohalarida qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi o'rni va faolligini kuchaytirish o'zgarishlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Ayollarni iqtisodiy mustaqillikka erishish, o'z salohiyatini rivojlantirish va jamiyatning rivojiga hissa qo'shish yo'llarini ochish, O'zbekistonning yangi, adolatli va farovon jamiyatni barpo etishdagi muhim qadamidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://wcu.uz/oz>
2. <https://ihma.uz/uz/agency-category>
3. <https://president.uz/oz/lists/view/7928>
4. Gender munosabatlari: nazariyasi v aamaliyotiga kirish. Ilmiy maqolalar to'plami.- T.: O'zRX-QQ, BMTRD, SHO'EGD, 2007.-B.407.